



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRINING BUYRUG‘I

328 -son

2024-yil “30” sentyabr

Toshkent shahri

### O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi huzuridagi jamoatchilik kengashining Nizomi va yangi tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 4-martdagi PF-6181-son Farmoni, “Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 4-iyuldagi PQ-3837-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisining 2024-yil 26-iyundagi 15-son bayoni ijrosini ta‘minlash maqsadida,

#### BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi huzuridagi jamoatchilik kengashi (keyingi o‘rinlarda FVV jamoatchilik kengashi deb yuritiladi) to‘g‘risidagi Nizom 1-ilovaga muvofiq hamda FVV jamoatchilik kengashining yangi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Axborot xizmati (mayor M.Sadikov):

**bir oy muddatda** FVV jamoatchilik kengashining joriy yil yakuniga qadar bo‘lgan faoliyatiga oid ish rejasi tasdiqlansin;

FVV jamoatchilik kengashi ushbu tasdiqlangan Nizom talablari asosida faoliyat yuritishi hamda tashkiliy-uslubiy va axborot jihatdan ta‘minlansin;

**har chorak** yakuni bo‘yicha FVV jamoatchilik kengashining faoliyati to‘g‘risida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga ma‘lumot kiritib borilsin.

**besh kun muddatda** FVV jamoatchilik kengashi Nizom talablari hamda yangi tarkibi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar FVV jamoatchilik kengashi raisi va a‘zolariga yetkazilsin hamda vazirlik rasmiy veb-saytida va davriy nashrlarda e‘lon qilinsin;

FVV jamoatchilik kengashining ochiqlikni ta‘minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish va vazirlik faoliyatini takomillashtirish borasida amalga oshirgan chora-tadbirlar haqidagi ma‘lumotlar vazirlikning ommaviy axborot vositalarida muntazam e‘lon qilib borilsin.

3. Vazirlik Markaziy apparati boshqarmalari, mustaqil bo'lim va xizmatlari, hududiy boshqarmalar va tarkibiy tuzilmalar boshliqlariga, FVV jamoatchilik kengashi a'zolariga yaqindan ko'maklashilsin hamda soha yo'nalishi bo'yicha xizmat faoliyati bilan tanishish, ularga so'ralgan ma'lumotlarni taqdim etish o'rnatilgan tartibda amalga oshirilsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirining "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi huzuridagi jamoatchilik kengashi nizomini tasdiqlash to'g'risida" 2018-yil 2-avgustdagi 466-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. Ish yuritish, ma'lumot va arxiv ishlari bo'limi (mayor N.Istamov):

ushbu buyruqning elektron matni qaror nusxasi bilan birgalikda vazirlik Markaziy apparati boshqarmalari, mustaqil bo'lim va xizmatlari hamda hududiy boshqarmalar va tarkibiy tuzilmalarga himoyalangan "E-xat" tizimi orqali yuborilsin va "Germes" axborot tizimiga kiritilsin;

o'z kuchini yo'qotgan buyruq o'rnatilgan tartibda hisobdan chiqarilsin;

buyruq vazirlikning barcha shaxsiy tarkibiga yetkazilsin.

6. Mazkur buyruq talablarining bajarilishini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari – Shtab boshlig'i polkovnik S.Zuparov zimmasiga yuklansin.

**Vazir**  
**general-mayor**



**A. Qo'ldoshev**